

DAVLAT CHEGARASI BUZUVCHILARINI QO'LGA OLISHDA RIVOJLANGAN DAVLATLAR CHEGARA QO'SHINLARINING TAKTIKASI

Sobirov Botirjon Toxirjanovich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada davlat chegarasi buzuvchilarini qo'lga olishda rivojlangan davlatlar chegara qo'shinlarining taktikasi, unda inson huquqlari va xalqlarning teng huquqligi, ularni hurmat qilishning xalqaro-huquqiy tamoyillari qoidalariga asoslangan holda "suverenitet", "hudud" va "xalqlar va millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi" tushunchalari evolyusiyasining ilmiy tahlili amalga oshirildi va xulosa tavsiyalar berildi.*

Kalit so'zlar: *Davlat xavfsizlik xizmati, chegara xavfsizligi, huquqlar, erkinliklar, tinchlik va barqarorlik.*

Аннотация: *В статье рассматривается тактика пограничных войск развитых стран по задержанию нарушителей государственной границы, основанная на нормах международно-правовых принципов прав человека и равноправия народов, уважения к ним, в том числе понятия «суверенитет», «территория» и «права народов и наций». Проведен научный анализ эволюции понятия «самоопределение» и даны заключительные рекомендации.*

Ключевые слова: *Служба государственной безопасности, пограничная безопасность, права, свободы, мир и стабильность.*

Abstract: *This article presents a scientific analysis of the tactics of border troops of developed countries in apprehending violators of the state border, the evolution of the concepts of "sovereignty", "territory" and "self-determination of peoples and nations" based on the rules of international legal principles of respect for human rights and equal rights of peoples, and provides concluding recommendations.*

Keywords: *State Security Service, border security, rights, freedoms, peace and stability.*

KIRISH

Har qanday davlat muayyan cheklangan hududda joylashadi va o'z hududini qo'riqlash uchun chegaralar o'rnatadi. Shu hududda uning fuqarolari istiqomat qiladi. Davlat o'z hududi doirasida ichki va tashqi fuksiyalarni amalga oshiradi. Bu hududning daxlsizligini himoya qilish uning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Har bir davlatning yaxlit hududi muayyan tarzda, albatta, ma'lum qismlarga, bo'linmalarga bo'lingan bo'ladi. Davlat hududini bunday bo'lish uni boshqarishni osonlashtirish, samarali boshqarish maqsadlarini ko'zlaydi.

Davlatning hududi qanday tarzda tashkil etilganligini, ya'ni markaz bilan hududiy birlikning o'zaro munosabati qanday, qanaqa ma'muriy hududiy bo'linmalarga bo'lingan kabi masalalar "davlatning tuzilish shakli" degan atama bilan ancha vaqtdan beri ifodalanib kelgan. Biroq tuzilish degan ibora juda serma'no bo'lganligi tufayli, keyingi paytlarda konstitutsiyaviy

yuridik adabiyotda “hududiy-siyosiy tuzilish”, siyosiy hududiy tuzilish kabi atamalarni qo'llash keng tarqalmoqda.

Davlatning hududiy tuzilishi – davlat tuzilishi tushunchasining tarkibiy qismi bo'lib, davlat o'z vazifa va funksiyalarini bajarishi uchun, muayyan cheklangan hududini ma'lum bir hududiy (ma'muriy-hududiy) birliklarga bo'linishini, ularning mahalliy organlari bilan markaziy organlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarning xususiyatlari tushuniladi. Ushbu hududiy birliklarda, davlat apparati mahalliy organlarining strukturasi tuziladi. Shuning uchun davlatning hududiy tuzilishini ma'muriy-hududiy tuzilish deb atash maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR SHARHI

Markaziy Osiyo davlatlari chegaralarining xalqaro-huquqiy rejimlarini rivojlantirishning joriy tendensiyalarini hisobga olishda umumjahon taraqqiyot jarayonlari barcha davlat chegaralariga (ilgari mavjud bo'lgan va yangi tashkil etilgan) tabaqalashtirilgan ta'sir ko'rsatishi va ularning ta'sir darajasi davlatlararo chegaralar va ularga tutash chegara hududlaridagi vaziyatni shakllantiradigan omillarga bog'liq. Bunda davlatlararo o'rnatilgan xalqaro-huquqiy hamkorlik hamda chegara xavfsizligidagi mavjud muammolar va ularning tahdidlari muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

O'tgan asrning 90-yillarining ikkinchi yarmida boshlangan Markaziy Osiyodagi respublikalarning chegaralarini xalqaro-huquqiy jihatdan rasmiylashtirish jarayoni yangi tashkil topgan mustaqil davlatlari o'z xalqlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, etnik va madaniy integratsiyasi asosida o'z-o'zini aniqlash tarzida namoyon bo'ldi. Hozirgi kunda umumjahon rivojlanish jarayonlari Markaziy Osiyo mamlakatlarning davlat chegaralari bajaradigan funksiyalariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday holat birinchidan, postbipolyar dunyoda, umumjahon rivojlanish ta'siri ostida, ikki jarayon parallel rivojlanmoqda mavjud bo'lgan chegaralar fragmentatsiya yoki integratsiyasi davlatlarda ayniyatlar evolyusiyasiga ta'sir qilmoqda, ayniyatlar chegara funksiyalariga va ularga tutash bo'lgan chegara hududlariga o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Ikkinchidan, davlat chegaralari, o'zlarining siyosiy roliga asoslanib, ichki va tashqi funksiyalarni bajaradi. Chegaralarning ichki funksiyalari davlatning suvereniteti va hududiy yaxlitligini hamda aholisining ijtimoiy va etnomadaniy integratsiyasini ta'minlashdan iborat. Davlat chegaralarining tashqi funksiyalari esa o'rnatilgan xalqaro-huquqiy rejimlar doirasida qo'shni davlatlar bilan samarali hamkorlik qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi.

Uchinchidan, davlat chegaralari bajaradigan funksiyalarning asosiy xususiyatlari davlatning va u joylashgan mintaqaning rivojlanishida sodir bo'layotgan o'ziga xos tarixiy shart-sharoitlarga bog'liq. Shunday qilib, Markaziy Osiyo mamlakatlari davlatlararo chegara rejimlarining aniq xalqaro-huquqiy tartibga solinmaganligi o'tish davri voqeliklarining aksidir. Bu borada davlatlar tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, umumjahon va mintaqaviy integratsiya jarayonlari ta'siri ostida, qo'shni davlatlar va boshqa mintaqalardagi davlatlar bilan transchegaraviy aloqalarini o'rnatish va kengaytirishga olib kelmoqda.

To'rtinchidan, Markaziy Osiyodagi vaziyatning hozirgi rivojlanishi mintaqa davlatlari o'rtasidagi munosabatlarda globalizatsiya jarayonlarining ustun bo'lish tendensiyasi davom etayotganligidan dalolat bermoqda. O'z navbatida, bunday holat qo'shni mamlakatlar bilan davlat chegaralarining to'siqli va aloqa funksiyalarining nisbatini aniqlashda tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanishni nazarda tutadi.

Beshinchidan, Markaziy Osiyo mamlakatlarining davlatlararo munosabatlari tahliliga ko'ra ikki tomonlama munosabatlar o'tish davrida regionalizatsiyaning asosiy tarkibiy bo'g'ini bo'lib qoladi. Shu bilan birga, mintaqadagi davlatlar o'rtasidagi chegaralar ularning iqtisodiy rivojlanishi uchun ikki tomonlama hamkorlik asosida yuzaga kelayotgan qulay shartlardan samarali foydalanish, potensial xavfsizlik va tahdidlarning oldini olish vazifalarini bajaradi.

Davlat chegaralari zamonaviy xalqaro huquq tamoyillari va normalari bilan boshqariladigan xalqaro-huquqiy kategoriyadir. Qo'shma chegaralarda demokratik xalqaro-huquqiy rejimlarning o'rnatilishi davlatlar va xalqlar o'rtasidagi yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini, shuningdek, turli sivilizatsiyalar o'rtasidagi tolerant muloqotni ilgari suradi. Markaziy Osiyo mintaqasi davlat chegaralarining xalqaro-huquqiy rejimlarining holati o'tish davrining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi voqeliklar hamda ularning chegara xavfsizligiga oid muammo va tahdidlarning mavjudligini aks ettiradi.

Davlat chegaralarini shakllantirishga me'yoriy ta'sir ko'rsatuvchi xalqaro huquq kategoriyalari orasida «xalq» va «suverenitet» kabi o'zaro bog'liq ikki tushuncha muhim o'rin tutadi. Umuman olganda, suverenitet davlat ichida hokimiyat va milliy xalqaro huquq normalariga asoslangan mustaqil tashqi siyosatni amalga oshirish xususiyatidir. Suverenitetning mavjud 3 ta turi (xalq, milliy, davlat) orasida qonuniy davlat va jamiyatni qurishda asosan xalqqa tayanadi. Bunda umummilliy va davlatlararo ishlarni boshqarish, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vositalardan foydalanishda xalq mustaqilligi faraz qilinmoqda. Shu bilan birga suverenitet milliy xavfsizlik tizimi, uning asosiy quyi tizimi sifatida chegara xavfsizligini shakllantirishning muhim huquqiy poydevoridir.

Milliy suverenitetning asosiy mohiyati esa barqaror etnik jamoaga ega bo'lish, o'zligini saqlab qolish va uni rivojlantirish uchun siyosiy erkinlikka erishish, teng huquqlilik, xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash hamda xalqaro-huquqiy tamoyillarga hurmat asosida amalga oshirish hisoblanadi.

Milliy manfaatlarni himoya qilish va milliy xavfsizlikni ta'minlash sohasida muhim tizimni shakllantirish jamiyatning asosiy instituti va suverenitetga ega bo'lgan davlatga tegishli. Xalqaro-huquqiy shaxslikka ega bo'lgan davlat ko'p tomonlama va ikki tomonlama darajadagi xalqaro munosabatlarda ishtirok etib, milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi, ya'ni chegara xavfsizligini ta'minlashning xalqaro-huquqiy asosini yaratadi. «Hudud» muhim xalqaro-huquqiy kategoriya bo'lib, «xalq» va «suverenitet» tushunchalari uchun hayotni qo'llab-quvvatlovchi muhit vazifasini bajaradi.

Ushbu tushuncha sifatida ma'lum geografik makon sharoitida yashovchi va usha joyda tarixan shakllangan, xalqaro-huquqiy shaxsiyatga ega bo'lgan, odamlar jamoasi (xalq, millat) yer sharining ma'lum bir qismi sifatida tushuniladi.

U davlat va uning moddiy bazasining eng muhim xususiyatlaridan biridir. Hududga bo'lgan huquq – xalqning uzviy huquqi va uning milliy suvereniteti namoyon bo'lishining biri. Teng huquqlilik to'g'risidagi xalqaro huquq tamoyili qoidalariga asoslanib, barcha xalqlar o'zlari yashab turgan hudud huquqiga ega ekanligi va ushbu hududda ularning odamlar jamoasi sifatida shakllanishining tarixiy yo'lini bosib o'tganligidan dalolat beradi. Shu nuqtai nazardan milliy hududni zamonaviy xalqaro huquq normalariga muvofiq, milliy suverenitet tufayli ushbu mamlakatdagi xalq va millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash va o'z xohish-irodasini erkin amalga oshirish imkoniyatini mavjud bo'lgan dunyoning ajralmas qismi sifatida tushunish kerak. «Hudud» va «xalq» o'zaro bog'liq 2 ta kategoriya bo'lib, ular o'rtasida bir-biriga bo'ysunuvchiligi mavjud bo'lib, ularning birgalikda tarixiy rivojlanishi uzoq va murakkab jarayon sifatida namoyon buladi. Ularni o'zaro bog'liq tarzda ko'rib chiqmay turib, davlat chegaralarining shakllanish xususiyati, xalqlarning tadrijiy rivojlanish tarixi va ular o'rtasidagi munosabatlar tabiatini tushunish qiyin. Etnik madaniyat va xalqning tarixi, hududning umumiy tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u kishilik jamoasini birlashtirish orqali jamiyat va davlat shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Shu bois hudud xalq va davlat hokimiyati o'rtasida bog'lovchi bo'g'in bo'lib, ularning tabiyati, yashash joyi muhiti, yer osti va yer usti boyliklari hamda davlat tuzilishi xalq, millat va davlat suverenitetini amalga oshirishda, moddiy baza vazifasini bajaradi.

Xalq va millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash tamoyili yangi tashkil topgan mustaqil davlatlar chegaralarining xalqaro-huquqiy o'rnatilishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Xalq va millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi – xalqning milliy va siyosiy ongini rivojlantirishning murakkab tarixiy jarayonidir. U inson va xalqlar huquqlarini hurmat qilishning demokratik tamoyillariga rioya qilish, progressiv xususiyatlarga ega bo'lgan yangi siyosiy tuzum orqali ularning xalqaro-huquqiy va o'zidagi mavjud tizimga nisbatan aniqlashi hamda uning bundan keyingi talab-ehtiyojini anglashdan iborat. Xalqlarning teng huquqlilik tamoyili asosida dunyodagi barcha xalqlar «ichki» va «tashqi» o'z taqdirini o'zi belgilashi huquqiga ega.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi chegara xavfsizligining ishonchliligi ko'p jihatdan qo'shni davlatlar bilan birgalikda davlat chegarasini samarali qo'riqlash va himoya qilishni ta'minlash bo'yicha chegaraviy hamkorlikni tashkil etish darajasiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi chegara xavfsizligining ishonchliligini oshirish uchun chegara masalalari bo'yicha barcha qo'shni davlatlar bilan ikki tomonlama xalqaro-huquqiy hujjatlarni imzolash, asosiy yo'nalishlarni, shakl va usullarni, ikki davlat chegara idoralari o'rtasidagi muvofiqlashtirish va o'zaro hamkorlik mexanizmlarini belgilashi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat chegarasi to'g'risidagi" Qonuni. T.,1999. 36-38 moddalar.
2. 2021 yil 23 yanvardagi 35-sonli qarori. 1-ilovasida. O'zbekiston Respublikasi Davlat Xavfsizlik Xizmati Chegara Qo'shinlariga ko'maklashuvchi «chegara posbonlari» otryadlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida
3. Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo'shinlariga ko'maklashuvchi «Chegara posbonlari» otryadlari to'g'risida» 2014 yil 30 sentabrdagi 273-son.